

NAMANGAN SHAHRI DEMOGRAFIK JARAYONLARINING GEOGRAFIK TAHLILI

Usmonova Yulduz Avazbek qizi – tayanch doktorant

yulyausmonova@gmail.com

Jumaxanov Shavkatjon Zairjonovich – geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

jumaxanovshavkatjon@gmail.com

Namangan davlat universiteti

АНАЛИЗ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ГОРОДА НАМАНГАНА

Усмонова Юлдуз Авазбековна – базовый докторант

Жумаханов Шавкатжон Заиржонович – доктор географических наук (DSc), доцент

Наманганский государственный университет

ANALYSIS OF DEMOGRAPHIC PROCESSES IN NAMANGAN CITY

Usmonova Yulduz Avazbekovich – doctoral student

Jumaxanov Shavkatjon Zairjonovich – Doctor of Geographical Sciences (DSc), Associate Professor

Namangan State University

Tayanch soʻzlar: tabiiy oʻsish, tugʻilish, oʻlim, nikoh, ajralish, urbanizatsiya, demografik oʻtish, hududiy transformatsiya.

Rezyume. Mazkur maqolada 2010–2025-yillar davomida Namangan shahrida yuz bergan demografik rivojlanish tendensiyalari statistik tahlil qilindi. Tadqiqotda aholi soni, tabiiy koʻpayish, migratsiya jarayonlari, nikoh va ajralish koʻrsatkichlari oʻzgarishi hamda hududiy transformatsiya jarayonlarining oʻzaro bogʻliqligi oʻrganildi. Tadqiqot natijalari shahar hududiy rejalashtirish va demografik siyosatni takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ключевые слова: естественный прирост, рождаемость, смертность, брачность, разводимость, урбанизация, демографический переход, территориальная трансформация.

Резюме. В данной статье на основе статистического анализа исследованы тенденции демографического развития города Намангана за 2010-2025 годы. В ходе исследования изучены изменения численности населения, естественного прироста, миграционных процессов, показателей брачности и разводимости, а также взаимосвязь данных процессов с территориальными трансформациями. Результаты исследования имеют научно-практическое значение для совершенствования территориального планирования города и демографической политики.

Key words: natural increase, birth rate, mortality, marriage rate, divorce rate, urbanization, demographic transition, territorial transformation.

Summary. This article examines the demographic development trends of Namangan city during 2010-2025 based on statistical analysis. The study explores changes in population size, natural increase, migration processes, marriage and divorce rates, as well as their relationship with territorial transformation processes. The findings have scientific and practical significance for improving urban territorial planning and demographic policy.

Kirish. Demografik jarayonlar har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon boʻladi. Aholi soni dinamikasi, uning yosh-jins tarkibi, tabiiy koʻpayish va migratsiya oqimlari urbanizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, hududiy rivojlanish tendensiyalarini tizimli va chuqur tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, tez urbanizatsiyalashuv sharoitidagi shaharlar misolida demografik jarayonlarning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish nazariy va amaliy jihatdan muhim dolzarblik kasb etadi. Bunday tadqiqotlar mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va urbanistik rejalashtirishning ilmiy asoslangan qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Namangan shahri Oʻzbekiston Respublikasining demografik jihatdan eng jadal rivojlanayotgan shaharlaridan biri sifatida soʻnggi yillarda aholi sonining barqaror va yuqori oʻsish surʼatlari bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqotning **asosiy maqsadi** Namangan shahrida 2010-2025-yillar davomida kuzatilgan demografik jarayonlarning (aholi soni dinamikasi, tabiiy koʻpayish, migratsiya harakati, nikoh va ajralish koʻrsatkichlari) oʻzaro bogʻliqligini kompleks statistik va demografik tahlil qilish hamda shahar demografik rivojlanishining umumiy ten-

densiyalarini ilmiy asosda baholashdan iborat. Qoʻyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

– Namangan shahri aholi soni, tugʻilish, oʻlim va tabiiy koʻpayish koʻrsatkichlarining oʻzgarish qonuniyatlarini aniqlash hamda ularning aholi soni oʻsishiga taʼsirini baholash;

– Namangan shahridagi migratsiya jarayonlarining dinamikasi, yoʻnalishlari va demografik rivojlanishdagi oʻrnini tadqiq etish;

– nikoh va ajralish koʻrsatkichlarini tahlil qilish asosida oilaviy-demografik munosabatlardagi oʻzgarishlarni aniqlash;

– shahar demografik rivojlanishining zamonaviy xususiyatlarini demografik oʻtish nazariyasi nuqtai nazaridan baholash.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Demografik jarayonlar va urbanizatsiya muammolari jahon, MDH hamda Oʻzbekiston olimlari tomonidan uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi.

Demografik rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganishda F. Notesteinning demografik oʻtish nazariyasi [7] muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Mazkur nazariyada jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida tugʻilish va oʻlim koʻrsatkichlarining oʻzgarishi hamda aholi takror barpo boʻlishining xususiyatlari yoritilgan.

W.Zelinskiy [13] tomonidan ishlab chiqilgan migratsion o'tish modeli esa, demografik transformatsiya va migratsiya oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Shuningdek, K.Davis [4], J.Gibbs, J.Bogue va boshqa olimlar urbanizatsiya hamda demografik rivojlanishning nazariy asoslarini takomillashtirishga munosib hissa qo'shganlar.

Shaharlarning demografik va urbanistik rivojlanish masalalari sobiq Ittifoq va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Jumladan, N.N.Baranskiy [3] iqtisodiy-geografik o'rin konsepsiyasini ishlab chiqib, shaharlarning shakllanishi va rivojlanish omillarini ilmiy asoslab bergan. G.M.Lappo [6], E.N.Pertsik [8], V.G.Davidovich, Yu.G.Saushkin, P.M.Polyan, V.V.Pokshishevskiy va boshqa olimlarning ilmiy ishlari shaharlar geografiyasi, urbanizatsiya jarayonlari, aholi joylashuvi va migratsiya masalalarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda aholi geografiyasi va urbanizatsiya masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllangan. Xususan, N.V.Smirnov tomonidan Farg'ona vodiysi shaharlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Respublikada aholi geografiyasi, demografik jarayonlar va urbanizatsiya muammolarini o'rganishda A.S.Soliyev [11], Z.N.Tojiyeva [14], M.B.Buriyeva [3], O.Ata-Mirzayev [2], A.A.Qayumov [10], Z.A.Temirov [13], H.A.Abduvaliyev [1], Sh.Z.Jumaxanov [6] va boshqa olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlarda aholi joylashuvi, migratsiya, urbanizatsiya darajasi, shaharlar tizimining shakllanishi hamda hududiy rivojlanish muammolari yoritilgan.

Shu bilan birga, Namangan shahri demografik rivojlanishining 2010–2025-yillardagi zamonaviy tendensiyalari, urbanizatsiya jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi, migratsiya harakati, nikoh va ajralish ko'rsatkichlari hamda demografik o'tish nazariyasi nuqtayi nazaridan kompleks geografik-demografik tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Material va metodlar. Mazkur tadqiqotda Namangan shahrining 2010–2025-yillar davomidagi demografik jarayonlarini kompleks tahlil qilish uchun statistik, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv usullari qo'llanildi. Tadqiqotda rasmiy statistika ma'lumotlari, ilmiy adabiyotlar va milliy hisobotlar asosiy manba sifatida jalb qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Namangan shahri viloyat hududining atigi 2,0 foizini egallashiga qaramay, demografik salohiyatning yuqori darajada jamlanganligi bilan ajralib turadi. 2025-yilda shaharda 713,4 ming kishi istiqomat qilgan bo'lib, bu viloyat jami aholisining 22,8 foizini va shahar aholisining 35,1 foizini tashkil etadi. Mazkur holat Namanganning viloyatdagi aholi konsentratsiyasining eng yirik markazi ekanligini ko'rsatadi.

2010–2025-yillar davomida Namangan shahri aholisi tabiiy o'sish va ichki migratsiya hisobiga sezilarli ravishda ortdi. Qishloq hududlaridan markazga ko'chish sur'ati kuchaydi. Shahar aholisi 2010-yilda 441,3 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 713,4 ming kishiga yetdi, ya'ni so'nggi 15 yil ichida 272,1 ming kishiga ortgan, yoki har yili o'rtacha 18,2 ming kishidan ko'paygan. qariyb 62 foizga Aholi zichligi 1 kv.km.ga 4756 kishini tashkil etdi [17].

Aholining takror barpo bo'lishi hududning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, aholi sonining o'zgarishi tug'ilish va o'lim (tabiiy harakat), shuningdek, immigratsiya va emigratsiya (mexanik harakat) jarayonlari natijasida shakllanadi [12]. (1-jadval).

1-jadval. Namangan shahri aholisining demografik ko'rsatkichlari (2010-2025-yy)

№	Yillar	Aholi soni (ming kishi)	Mutloq o'sish (ming kishi)	Tug'ilish (‰)	O'lim (‰)	Tabiiy ko'payish (‰)
1	2010	441,3	-	23,6	4,8	18,8
2	2011	453,5	12,2	23,1	4,8	18,3
3	2012	461,1	7,6	23,0	4,9	18,1
4	2013	468,0	6,9	24,6	4,8	19,8
5	2014	475,7	7,7	26,9	5,1	21,8
6	2015	484,9	9,2	26,0	5,1	20,9
7	2016	493,3	8,4	26,9	5,3	21,6
8	2017	590,2	96,9	24,9	5,3	19,6
9	2018	600,2	10,0	27,0	4,9	22,1
10	2019	612,2	12,0	28,7	4,9	23,8
11	2020	626,1	13,9	29,8	5,1	24,7
12	2021	644,8	18,7	31,3	5,1	26,2
13	2022	661,1	16,3	31,4	5,0	26,4
14	2023	678,2	17,1	32,0	4,9	27,1
15	2024	696,5	18,3	28,5	5,1	23,4
16	2025	713,4	16,9	26,0	4,9	21,1

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.


2010-2024-yillarda Namangan shahrining demografik jarayonlari muntazam o'sish bilan birga ayrim keskin siljishlarni ham ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, O'zbekiston bo'yicha o'rtacha aholi o'sishi (2010–2025-y.y) 33 foizni tashkil etganligini hisobga olsak, Namangan shahri o'sish sur'ati respublika o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli ikki baravar yuqori. Aholi sonining bunday tez o'sishi, avvalo, tug'ilish darajasining yuqoriligi hamda o'lim darajasining nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Mutloq o'sish ko'rsatkichlari tahlili ushbu jarayonning ichki tuzilishini ochib beradi va quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin: **1-bosqich** – 2010–2016-yillar davomida aholi sonining yillik o'sishi 6,9–12,2 ming kishi oralig'ida bo'lib, bu davrda demografik jarayonlar nisbatan barqaror kechgan; **2-bosqich** – 2017-yilda kuzatilgan 96,9 ming kishilik keskin o'sish demografik jarayonlarda o'ziga xos burilish nuqtasi bo'ldi. Mazkur sakrash tabiiy ko'payish bilan emas, balki hududiy kengayish jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Xususan, 2017-yilda shaharning ma'muriy chegaralari kengaytirilishi natijasida yangi turarjoy massivlari, shahar atrofi hududlari va qator qishloq aholi punktlari shahar tarkibiga qo'shildi, ya'ni, 2016-yilda Namangan shahri aholisi sonining o'sishiga Namangan, Uychi va Yangiqo'rg'on tumanlarida yashovchi aholining bir qismi qo'shilishi sabab bo'lgan. Natijada, shahar hududi kengaydi, aholi zichligi qayta shakllandi, kundalik pendul-

yatsion migratsiya² kuchaydi, yangi uy-joy massivlari vujudga keldi, transport va muhandislik infratuzilmasiga yuklama ortdi. **3-bosqich** – 2018-2025-yillar davomida aholi o'sish sur'atlarining yana barqarorlashgani va ma'lum darajada tezlashgani kuzatiladi. Ushbu davrda yillik mutloq o'sish 10–18 ming kishi oralig'ida bo'lib, ayniqsa, 2021–2024-yillarda maksimal ko'rsatkichlarga erishgan. Bu holat tabiiy ko'payishning yuqori darajada saqlanib qolishi va ayni paytda ichki migratsiyaning kuchayishi bilan izohlanadi.

Tug'ilish koeffitsiyenti tahlili muhim demografik xulosalar chiqarish imkonini beradi. 2010-yilda 23,6‰ (har 1000 kishiga 23,6 tug'ilgan) ni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 32,0‰ ga yetgan. Bu 8,4 promillega o'sish demografiyada “yuqori demografik o'sish” deb ataluvchi jarayonning mahalliy miqyosda namoyon bo'lganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 2024–2025-yillarda tug'ilish koeffitsiyentining 28,5‰ va 26,0‰ gacha pasayishi demografik jarayonlarda yangi tendensiya-shakllanayotganidan dalolat beradi. Ushbu pasayish urbanizatsiya darajasining oshishi (shahar turmush tarzi tug'ilishni cheklovchi omil sifatida), ayollarning mehnat bozoridagi faolligi va ta'lim darajasining ortishi, nikoh yoshining kechikishi kabi omillari ta'sirida bo'lishi mumkin [15].

O'lim koeffitsiyenti butun kuzatuv davri mobaynida 4,8–5,3‰ oralig'ida saqlanib qolmoqda. Bu ko'rsatkichning nafaqat past, balki barqarorligi diqqatga sazovordir. Taqqoslash uchun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda o'lim darajasi odatda, 6–8‰ atrofida bo'ladi. Barqaror past ko'rsatkich sog'liqni saqlash tizimining nisbatan samarali faoliyat yuritayotgani, bola o'limining keskin kamayganligi, aholi turmush darajasining ma'lum darajada yaxshilanganligini anglatadi. O'lim darajasining pastligi tabiiy ko'payishning yuqori bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.



1-rasm. Namangan shahrida aholi takror barpo bo'lish dinamikasi (2010–2025-yillar)

Tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 2010-yildagi 18,8 promilleden 2023-yilda 27,1 promillega qadar oshgan. 2025-yilda tabiiy ko'payish koeffitsiyentining 21,1 promilleni tashkil etdi. F. Notesteinning demografik o'tish nazariyasiga ko'ra, Namangan shahri hozirgi kunda demografik o'tish

nazariyasining III bosqichiga yaqinlashayotgan hudud sifatida tavsiflanadi. Tug'ilish darajasi yuqori bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, uning asta-sekin pasayishi kuzatilmoqda, o'lim darajasi esa barqaror past ko'rsatkichlarda saqlanmoqda. Bunga urbanizatsiya, ta'lim darajasining oshishi, ayniqsa, ayollarning ijtimoiy faolligi ortishi sabab bo'ladi va aholi o'sishi sekinlashadi.

Namangan shahrida aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi birgina tabiiy ko'payish yoki migratsiya bilan emas, balki demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va urbanizatsion omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanmoqda. Namangan shahrida aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishiga ta'sir etuvchi muhim demografik omillardan biri reproduktiv yoshdagi ayollar (15–49 yosh) ulushining salmoqliligidir. Namangan shahrida reproduktiv yoshdagi ayollar soni 163,5 ming kishini tashkil etib, jami aholi sonining 22,9 foiziga teng bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich tug'ilish darajasining yuqori saqlanishi hamda tabiiy ko'payish sur'atlarining barqaror shakllanishi uchun qulay demografik zamin yaratmoqda. Bundan tashqari, Namangan shahri va umuman, Farg'ona vodiysi aholisi uchun xos bo'lgan milliy-demografik xususiyatlar ham muhim omil hisoblanadi. Oila institutining mustahkamligi, ko'p farzandli oilalarga ijobiy munosabat va avlodlar davomiyligiga asoslangan qadriyatlar tizimi tug'ilish darajasining nisbatan yuqori saqlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, vodiylar hududlarida 3 va undan ortiq farzandli oilalar ulushi mamlakatning ayrim boshqa hududlariga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatiladi.

Namangan shahrida tabiiy ko'payish koeffitsiyenti (21,1‰) mintaqaning boshqa yirik shaharlariga nisbatan yuqori bo'lib, aholi sonining o'sish sur'atlari bo'yicha ham Namangan shahri Farg'ona, Andijon va Qo'qon shaharlari bilan solishtirilganda yuqori dinamikaga ega ekanligi aniqlandi. Bu holat Namangan shahri Farg'ona iqtisodiy rayonidagi demografik markaz va urbanizatsion o'sish qutbi sifatidagi mavqeyini oshiradi [13].

Umuman olganda, Namangan shahrida kuzatilayotgan demografik jarayonlar murakkab va ko'p omilli xususiyatga ega bo'lib, ularning shakllanishida tabiiy va mexanik harakat omillari o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Aholi sonining o'sishida tabiiy ko'payish hal qiluvchi rol o'ynayotgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda migratsiya jarayonlarining ta'siri ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Migratsiya jarayonlarining miqdoriy va sifat jihatlarini tahlil qilish ularning shahar demografik rivojlanishidagi o'rnini aniq belgilash imkonini beradi. Namangan shahri viloyatning barcha tumanlari, ayniqsa, Namangan, Uychi, Norin, Chortoq, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on va Yangiqo'rg'on tumanlari uchun mehnat bozori, ta'lim va xizmat ko'rsatish markazi vazifasini bajaradi. Mazkur hududlardan shaharga yo'nalgan kundalik pendulyatsion migratsiya oqimlari shakllangan bo'lib, aholining ishga, o'qishga, tibbiy xizmatlardan foydalanish va savdo maqsadlarida muntazam qatnovi kuzatiladi. Shuningdek, shaharda viloyatdagi asosiy oliy ta'lim muassasalari, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari, yirik savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarining joylashganligi ichki migratsiya jozibadorligini kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi. Natijada qishloq hududlaridan shaharga doimiy va vaqtinchalik ko'chib kelish jarayonlari urbanizatsiya sur'atlarini jadallashtirmoqda.

² **Pendulyatsion migratsiya** – bu aholining doimiy yashash joyini o'zgartirmagan holda, ma'lum muddat davomida (odatda har kuni yoki haftalik) ish, o'qish, xizmat ko'rsatish va boshqa ehtiyojlar sababli bir hududdan ikkinchi hududga qatnab yurishidir.

2-jadval. Namangan shahri aholisi migratsiya ko'rsatkichlari (2010-2025-yy)

№	Yillar	Immigratsiya	Emigratsiya	Mexanik ko'payish
		Har 1000 kishiga nisbatan, ‰		
1	2010	2,8	3,5	-0,7
2	2011	1,6	3,3	-0,7
3	2012	0,9	3,6	-2,7
4	2013	0,85	4,1	-3,25
5	2014	1,5	3,9	-2,4
6	2015	0,5	3,9	-3,4
7	2016	1,2	3,7	-2,5
8	2017	0,4	2,7	-2,3
9	2018	0,9	3,0	-2,1
10	2019	1,8	2,9	-1,1
11	2020	0,8	3,1	-2,3
12	2021	1,25	2,2	-0,95
13	2022	1,1	2,0	-0,9
14	2023	1,5	1,9	-0,4
15	2024	1,9	2,4	-0,5
16	2025	1,2	1,7	-0,5

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Namangan shahrida 2010-2025-yillar oralig'ida migratsiya jarayonlari aholi dinamikasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, mexanik ko'payish (immigratsiya va emigratsiya o'rtasidagi farq) orqali ifodalanadi. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida mexanik harakat, asosan, *manfiy balans* bilan tavsiflanadi, ya'ni emigratsiya immigratsiyaga nisbatan yuqori bo'lib, shahar aholisi migratsiya hisobiga kamayish tendensiyasini ko'rsatgan. Bu holat Namangan shahrining migratsion jozibadorligi masalasini ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

2010–2016-yillarda immigratsiya ko'rsatkichlari 0,5–2,8‰ oralig'ida o'zgarib tursa, emigratsiya 3,3–4,1‰ darajasida saqlanib qolgan. Natijada, mexanik ko'payish koeffitsiyenti doimiy ravishda salbiy bo'lgan va eng past ko'rsatkich 2015-yilda qayd etilgan (–3,4‰). Bu holat mamlakatda tashqi migratsiya balansining manfiyligini, ya'ni ketayotganlar sonining kelayotganlardan muntazam ravishda ko'pligini ko'rsatadi. Migratsiya yo'qotishlarining kuchayishini quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- *iqtisodiy omillar*: ish o'rinlari yetishmasligi, daromadlar darajasining nisbatan pastligi, xorijda (ayniqsa, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya va Janubiy Koreyada) yuqori daromad olish imkoniyatlarining mavjudligi aholining mehnat migratsiyasiga yo'nalishini kuchaytirgan;

- *demografik omillar*: mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushining yuqoriligi va ichki mehnat bozorining bunday miqdordagi ishchi kuchini to'liq qabul qilish imkoniyatining cheklanganligi.

2017–2022-yillarda emigratsiya darajasi biroz pasaygan bo'lsa-da, immigratsiya ham nisbatan past darajada qolganligi sababli mexanik ko'payish baribir manfiy bo'lib qolgan. Bu holat shahar migratsiya tizimining nisbatan barqaror bo'lgan bosqichini aks ettiradi.

2022–2025 yillarda esa, migratsiya jarayonlari yana muvozanatsiz holatga qaytgan, biroq mexanik ko'payish keskin emas. Bu davrda mexanik ko'payish –0,4‰ dan –0,9‰ gacha bo'lgan oraliqda saqlanib, emigratsiya va immigratsiya o'rtasidagi farq sezilarli darajada qisqargan. Oldingi yillarga nisbatan aholining xorijga chiqib ketish sur'atlari biroz pasaygan bo'lib, bunga ichki iqtisodiy sharoitlarning ma'lum darajada yaxshilangani, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va hududiy rivojlanish dasturlarining amalga oshirilishi sabab bo'lgan. Shunga qaramay, shahar aholisi o'sishida asosiy omil sifatida tabiiy ko'payish ustun ahamiyat kasb etadi, migratsiya esa, ushbu o'sish sur'atini biroz pasaytiruvchi ikkilamchi omil sifatida qolmoqda.

Namangan shahri demografik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq baholash maqsadida uning demografik ko'rsatkichlarini respublikaning yirik shaharlari – Toshkent, Samarqand va Andijon bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Mazkur shaharlar O'zbekiston urbanizatsiya tizimida muhim o'rin tutib, aholi soni, migratsion jozibadorligi va iqtisodiy salohiyati bilan ajralib turadi.

Toshkent shahrida aholi sonining o'sishida migratsiya omili ustun ahamiyat kasb etadi. Poytaxt sifatida u mamlakatning asosiy iqtisodiy, moliyaviy va ma'muriy markazi bo'lib, ichki va tashqi migratsiya oqimlarini o'ziga jalb etadi. Shu sababli, Toshkent shahrida urban-demografik rivojlanish ko'proq migratsion konsentratsiya hisobiga shakllanadi. Samarqand shahri ham yirik tarixiy va iqtisodiy markazlardan biri sifatida urbanizatsiya jarayonlari turizm, xizmat ko'rsatish va migratsiya omillari bilan chambarchas bog'liq. Namangan shahrida esa aholi sonining o'sishi asosan, yuqori tabiiy ko'payish hisobiga yuz bermoqda. Migratsiya balansining uzoq yillar davomida manfiy bo'lib qolishi shuni ko'rsatadiki, Namangan aholisi o'sishining asosiy omili tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan bog'liq.

Andijon shahri Farg'ona vodiysidagi yirik shahar markazlardan biri bo'lib, demografik rivojlanish xususiyatlari jihatidan Namanganga o'xshash. Har ikkala shaharda ham tug'ilish darajasi yuqori va tabiiy ko'payish aholi o'sishining asosiy manbasi hisoblanadi. Biroq, 2025-yil holatiga ko'ra, Namangan shahri aholisi soni (713,4 ming kishi) Andijon shahri aholisidan (492,4 ming kishi) sezilarli darajada yuqori bo'lib, Namanganning Farg'ona vodiysidagi eng yirik demografik markaz sifatidagi mavqeyini tasdiqlaydi. Umuman olganda, Toshkent shahrida migratsion urbanizatsiya, Samarqandda turizm va xizmat ko'rsatishga tayangan urbanizatsiya, Namangan va Andijonda tabiiy demografik o'sishga asoslangan urbanizatsiya modeli ustunlik qiladi.

Nikoh va ajrim ko'rsatkichlari aholining demografik rivojlanish darajasini ifodalovchi muhim ijtimoiy indikatorlar hisoblanadi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, madaniy qadriyatlar va aholi xulq-atvoridagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali oilaviy barqarorlik hamda demografik jarayonlarning umumiy tendensiyalarini baholash mumkin (3-jadval).

3-jadval. Namangan shahri aholisi o'rtasida nikohlanish ko'rsatkichlari (2010-2025-yy)

Yillar	Jami aholi soni (ming kishi)	Nikohlar soni (ta)	Nikohning umumiy ko'effitsiyenti (%)	16-69 yoshdagi aholi soni (ming kishi)	16-69 yoshdagi bo'yicha nikoh ko'effitsiyenti (%)
2010	441,3	4523	10,3		
2011	453,5	4238	9,3		
2012	461,1	4488	9,7		
2013	468,0	4441	9,5		
2014	475,7	4632	9,7		
2015	484,9	4543	9,4	317,2	14,3
2016	493,3	4145	8,4	323,5	12,8
2017	590,2	5658	9,5	386,6	14,6
2018	600,2	5733	9,5	392,0	14,6
2019	612,2	5872	9,6	397,3	14,7
2020	626,1	4894	7,8	403,0	12,1
2021	644,8	5457	8,4	411,3	13,2
2022	661,1	5221	7,9	386,9	13,4
2023	678,2	5030	7,4	422,5	11,9
2024	696,5	5251	7,5	430,6	12,1
2025	713,4	5 459	7,6	440,8	12,3

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

2010–2025-yillar oralig'ida nikoh jarayonlarida sezilarli demografik o'zgarishlar kuzatilgan. Nikohning umumiy ko'effitsiyenti 2010-yilda 10,3 promilleni tashkil etgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich davr oxirigacha ko'tarilib-pasayib, notekis tendensiyani namoyon etgan. Ayniqsa, eng keskin pasayish 2020-yilda kuzatilib, 2019-yildagi 9,6 promilledan 7,8 promillegacha kamaygan. Ushbu holat, avvalo, COVID-19 pandemiyasi bilan izohlanadi. Pandemiya davrida joriy etilgan karantin cheklavlari natijasida to'y va ommaviy marosimlar vaqtincha taqiqlandi yoki keskin qisqartirildi, FHDYO organlari faoliyati ham ma'lum darajada cheklangan. Bu pasayishdan keyin 2021–2025 yillarda qisman tiklanish kuzatilgan bo'lsa-da, 2019-yildagidek yuqori ko'rsatkichga yetmagan.

Nikoh jarayonlarini to'g'ri baholash uchun nikoh yoshidagi aholi kontingentiga (16–69 yosh) murojaat qilish metodologik jihatdan to'g'riroqdir. Chunki umumiy nikoh ko'effitsiyenti aholining barchasini (shu jumladan, nikoh yoshiga yetmagan va ancha katta yoshdagi aholini) hisobga olgan holda hisoblanadi va shu sababli nikoh intensivligining asl holatini to'liq aks ettirmaydi. 16–69 yoshdagi aholi soni 2015-yilda 317,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 440,8 ming kishiga yetgan. Bu nikoh uchun demografik bazaning 1,4 baravar kengayganini, ya'ni nikoh yoshidagi aholi salmog'i sezilarli darajada ortganini ko'rsatadi. Biroq, shunga qaramay, mazkur yosh guruhi bo'yicha nikoh ko'effitsiyenti 2015-yildagi 14,3% dan 2025-yilda 12,3% gacha pasaygan, bu pasayish nikoh intensivligining kamayganini anglatadi.

Ushbu qarama-qarshi holatni bir nechta omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, ijtimoiy omillar ta'sirida nikoh yoshining kechikishi kuzatilmoqda. Yoshlar orasida oliy ta'lim olish, kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish va

moddiy barqarorlikka erishish ustuvor ahamiyat kasb etib, nikohni keyingi yoshga surish tendensiyasi kuchaymoqda. Natijada, nikoh yoshidagi aholi soni ortgan bo'lsa-da, ularning barchasi bir vaqtning o'zida nikohga kirishmaypti.

Ikkinchidan, iqtisodiy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Uy-joy masalalari, daromad barqarorligi va to'y xarajatlarning yuqoriligi yoshlarning nikohga kirish qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu holat nikoh intensivligining pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, jamiyatda qadriyatlar tizimining o'zgarishi ham sezilmoqda. Individualizmning kuchayishi, fuqarolik nikohlari (rasmiylashtirilmagan munosabatlar)ning nisbatan ortishi va shaxsiy erkinlikka intilish nikoh darajasining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda aholi soni barqaror o'sgan bo'lsa-da, nikoh intensivligi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan.

2010–2025-yillar davomida ajralish ko'rsatkichlari tahlili hududda nikoh va oila institutining sezilarli transformatsiyaga uchraganini ko'rsatadi. Tadqiq etilayotgan davrni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin: 2010–2020-yillar nisbatan barqaror davr, 2021–2023-yillardagi keskin o'sish bosqichi hamda 2024–2025 yillardagi sekin pasayish davri (4-jadval).

4-jadval. Namangan shahri aholisi o'rtasida ajralish ko'rsatkichlari (2010-2025-yy)

Yillar	Ajrimlar soni (ta)	Ajralishning umumiy ko'effitsiyenti (%)	yoshdagi bo'yicha ajralish ko'effitsiyenti	Har 100 ta nikohga ajralish ko'rsatkichi
2010	409	0,9		9,0
2011	404	0,9		9,5
2012	325	0,7		7,2
2013	424	0,9		9,5
2014	514	1,0		11,1
2015	464	1,0	1,5	10,2
2016	491	1,0	1,5	12,0
2017	578	1,0	1,5	10,2
2018	546	0,9	1,4	9,5
2019	590	1,0	1,5	10,0
2020	411	0,7	1,1	8,5
2021	861	1,3	2,1	15,8
2022	1111	1,7	2,9	21,3
2023	993	1,5	2,4	19,7
2024	970	1,4	2,3	18,5
2025	954	1,3	2,2	17,5

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

2010–2020 yillar oralig'ida ajralishlar soni 325 tadan 590 tagacha bo'lgan diapazonda o'zgarib, umumiy ajralish ko'effitsiyenti, asosan, 0,7–1,0 % atrofida shakllangan. Har 100 ta nikohga to'g'ri keladigan ajralish ko'rsatkichi ham 7,2 dan 12,0 gacha bo'lib, bu davrda nikohlarning nisbatan barqarorligi saqlanib qolganini anglatadi. Ayniqsa, 2015–2019-yillarda 16–69 yoshdagi aholi bo'yicha ajralish ko'effitsiyentining 1,4–1,5 % darajasida bo'lishi ajralishlar intensivligi past va barqaror ekanini tasdiqlaydi. 2020-yilda pandemiya sababli sun'iy pasayish kuzatilib, har 100 ta nikohga ajralish 8,5 taga tushgan. Ushbu bosqichda ajralish

koefitsiyenti O'zbekiston o'rtacha ko'rsatkichidan (1,1–1,3%) nisbatan past bo'lgan.

Biroq, 2021-yildan boshlab vaziyat tubdan o'zgaradi. Ajralishlar soni 411 tadan 861 taga yetib, har 100 ta nikohga ajralish ko'rsatkichi 15,8 taga ko'tariladi. 2022-yilda esa, bu ko'rsatkichlar maksimal darajaga chiqib, ajralishlar soni 1111 taga, har 100 ta nikohga ajralish 21 taga yetadi. Bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan deyarli ikki baravar o'sganini anglatadi. Shu bilan birga, 16–69 yoshdagi aholi bo'yicha ajralish koefitsiyenti ham 2,9 % ga yetib, mehnatga layoqatli yosh guruhida ajralishlar keskin ortganini bildiradi. Mazkur holatni pandemiya davrida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, aholi daromadining pasayishi, ishsizlik, oilaviy ziddiyatlarning kuchayishi hamda ajralishlarni rasmiy qayd etish tizimining takomillashuvi bilan izohlash mumkin.

2023–2025-yillarda ajralish ko'rsatkichlarida ma'lum darajada pasayish kuzatiladi. Xususan, har 100 ta nikohga ajralish 2023-yilda 19 kishi, 2024-yilda 18,5 kishi va 2025-yilda 17,5 kishigacha pasaygan. Lekin, bu pasayishlarga qaramay, ko'rsatkichlar 2010–2020-yillardagi darajaga qaytmagan. 16–69 yoshdagi aholi bo'yicha ajralish koefitsiyenti ham 2,2–2,4 % atrofida saqlanib qolmoqda. Bu esa nikoh institutining nisbiy zaiflashuvi, oila barqarorligining pasayishi va jamiyatda demografik hamda ijtimoiy munosabatlarning o'zgarayotganidan dalolat beradi.

Xulosa. Namangan shahrida 2010–2025-yillar davomida kuzatilgan demografik jarayonlar tahlili quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. 2010–2025-yillarda Namangan shahrida demografik jarayonlar urbanizatsiya, hududiy transformatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq holda kechgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishida tabiiy ko'payish asosiy omil bo'lib xizmat qilgan, 2017-yildagi ma'muriy-hududiy o'zgarishlar esa, demografik sig'im va urbanizatsiya ko'lamining sezilarli kengayishiga olib kelgan.

2. Tug'ilish darajasining yuqori, o'lim ko'rsatkichlarining esa, past va barqaror saqlanishi Namangan shahri-ning demografik o'tishning uchinchi bosqichiga yaqinlashayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, migratsiya balansining manfiyligi mehnat resurslarini hududda ushlab qolish va iqtisodiy jozibadorlikni oshirish zarurligini anglatadi.

3. Nikoh intensivligining pasayishi va ajralishlar sonining ortishi oilaviy-demografik munosabatlarda transformatsion jarayonlar kechayotganidan dalolat beradi. Mazkur tendensiya kelgusida aholi takror barpo bo'lish jarayonlari va demografik tarkibga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, Namangan shahri demografik rivojlanishining zamonaviy bosqichi urbanizatsiya, tabiiy ko'payish va migratsiya jarayonlarining murakkab o'zaro ta'siri asosida shakllanmoqda. Ushbu tadqiqot natijalari shaharni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilmani rejalashtirish, demografik siyosatni takomillashtirish hamda hududiy boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslashda muhim metodologik va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Абдувалиев Х.А. Аҳолининг ҳудудий ташкил этилишини ландшафт омили асосида такомиллаштириш (Фарғона водийси мисолида). География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. 48-б.
2. Ата-Мирзаев О.Б., Геншке В.К., Муртазаева Р.Х. Народонаселение Узбекистана. – Ташкент: Университет, 2009.
3. Бuriyeva M.R. *Demografiya asoslari*. – Toshkent: Universitet, 2013. Баранский Н.Н. Экономическая география. Экономическая картография. – Москва: «Географгиз», 1956.
4. Davis K. The Urbanization of the Human Population // *Scientific American*. – 1965. Vol. 213. No. 3. – P. 41–53.
5. Jumaxanov Sh.Z. *Namangan viloyati geodemografiyasi [Monografiya]* / –Namangan: “Namangan”, 2022. – B. 116.
6. Лаппо Г.М. *География городов*: Учеб. пособие для геогр. ф-тов вузов, –Москва: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997.
7. Notestein, F.W. *Population: The Long View*. In: Schultz, T.W. (Ed.), *Food for the World*. Chicago: University of Chicago Press, 1945. – P. 36–57.
8. Перцик Е.Н. География городов (геоурбанистика). – Москва: «Высшая школа», 1991.
9. Қаюмов А.А., Якубов Ш., Абдуллаев А.Г. Аҳоли географияси ва демография асослари. – Тошкент: «Фан ва технология», 2011.
10. Soliyev A.S., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. *Shaharlar geografiyasi*. /o'quv qo'llanma/. -Toshkent: "InnovatsiyaZiyo", 2020.
11. Soliyev A., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. *Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]*. – Namangan: “Mashrab”, 2024. 408-b.
12. Темиров З.А., Фарғона водийси вилоятларида демографик жараёнлар ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари // География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2022. 45-б.
13. Tojiyeva Z.N., Aholi geografiyasi. // Darslik, –Toshkent: 2019.
14. Usmonova Y. *Орталық Азияның тұрақты дамуы мен геостратегиялық интеграциясы: өркениеттер тоғысындағы және заманауи жаһандық сын-қатерлер арасындағы жол атты халықаралық ғылыми-тәжірибелік конференция материалдары*, – Алматы: «TURAN», ISBN 978-601-82343-0-9. 2025. 332-б.
15. Zelinsky W. The Hypothesis of the Mobility Transition // *Geographical Review*. 1971. Vol. 61. No:2. – P. 219-249.
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi Namangan viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti. 10.05.2026 URL: <https://namstat.uz>